



**PLOMBA ASHYOLARI TASNIFI.TARKIBI, HUSUSIYATLARI,
QO'LLASH UCHUN KO'RSATMALAR**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: *Ushbu maqola stomatologiyada keng qo'llaniladigan plomba ashyolarini o'rganishga bag'ishlangan..Unda plomba ashyolarining tasnifi,kimyoviy tarkibi,asosiy xususiyatlari va amaliy qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar bayon etilgan.Maqolada har bir turdagi plomba materialining afzalliklari,kamchiliklari va klinik ishlatilishdagi tavsiyalar keltiriladi.Mazkur maqola stomatologlar va tibbiyot talabalariga plomba materiallarini tushunish va ularni to'g'ri qo'llash bo'yicha foydali ma'lumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *plomba, dentin, ijobiy va salbiy xususiyatlar, sement, tish qattiq to'qimasi, amalgama, tarkiblar, malham.*

Plomba ashyolari 4 guruhga bo'linadi: Vaqtinchalik,Doimiy plomba ashyolari,Tagliklar(Ajratuvchi va davolovchi) va ildiz kanallari uchun plomba ashyolari. Vaqtinchalik plomba ashyolariga Sun'iy dentin va Dentin malham kiradi. Sun'iy dentin-distillangan suv yordamida qoriladi.Qorish jarayonida kukunni suvga asta sekinlik bilan aralashtiriladi.Ijobiy xususiyatlari:arzonligi,og'iz boshlig'ida 1-3 daqiqada qotadi.Salbiy xususiyatlari:mexanik ta'sirga chidamsizligi va 1-3 kunga qo'yilishi. Dentin malham-tayyor holatda chiqariladi,sun'iy dentindan shaftoli va chinnigul moyi aralashmasidan iborat.Malham tana haroratida og'iz bo'shlig'ida 2-3soat davomida qoladi.Ijobiy xususiyatlari: qo'llashdagi oddiylig,sun'iy dentinga nisbatan yuqori mustahkamligi,2oydan 6 oygacha qo'yiladi.

Doimiy plomba ashyolariga: Sementlar,Metall plomba (Amalgama),Kompozitlar kiradi. Sementlar 2 ga: Mineral va Polimer sementlarga bo'linadi. Mineral sementlarga- Rux-fosfat sement,Silikofosfat sement,Silikat



sement Polimer sementlarga- Polikarboksilat sement, ShishaiOnomer sementlar kiradi. Rux-fosfat sementlarning kukuni (ZnO , SiO_2 , Al_2O_3 , MgO , CaO), Suyuqligi:Ortofosfor kislota. Rux-Fosfat sementlarning ijobiy xususiyatlari-plastiklik,yaxshi yopishish,past issiqlik o'tkazuvchanligi,pulpa uchun zararsiz,rentgenkontrastlik.Salbiy xususiyatlari- g'ovaklilik,so'lak ta'siriga beqarorligi,past mexanik mustahkamlik,emal rangidan farq qiladi,qotish vaqtida hajmning o'zgarishi taxminan 0,5% qisqarishi. Qo'llanishi: vaqtinchalik plobma uchun,ajratuvchi taglik sifatida,sun'iy qoplamalarni,ko'priksimon protezlarni,shiriftlarni qotirish uchun,doimiy va sut tishlarni plombalash uchun,kanallarni plombalash uchun.Silikat sementlarning kukuni: (alyuminosilikatlar va ftorid tuzlaridan tashkil topgan nozik maydalangan shisha). Suyuqligi: 30-40% fosfor kislota,rux va alyuminiy gidratning suvli eritmasi.Ijobiy xususiyatlari: mexanik mustahkamlik,shaffoflik,porlash;tish emaliga o'xshaydi;ftoridning yuqori miqdori profilaktik ta'sirini ta'minlaydi,narxi arzonligi;oson qorilishi,plastiklik. Salbiy xususiyatlari: tish to'qimalariga yomon yopishish;pulpaga ziyon beruvchi ta'sir;mo'rtlik,sinuvchanlik;so'lakda sinuvchanligi va beqarorligi(plombaning parchalanishi);cho'kmaga tushishi;rentgenoktrast emas;abrazivlik. Silikofosfatli sementlarning kukuni tarkibi: (silikat sement 95-60%,fosfat sement 5-40%),Suyuqlik tarkibi: fosfor kislotasining aralashmasi. Ijobiy xususiyatlari: mexanik bardosh;silikat sementlarga qaraganda kamroq mo'rt;silikat sementlarga qaraganda yaxshiroq yopishadi;plastiklik;arzonligi;rentgenoktrast. Salbiy xususiyatlari: tish to'qimalarining rangi bilan mos kelmasligi;toksikligi;so'lakda eruvchanligi va beqarorligi. Polimerlar. Polikarboksilat sementi kukuni: (metall oksidlarini sintezlash natijasida olingan ZnO -90%, MgO -10% ba'zi materiallarda 10 dan 40% gacha Al_2O va oz miqdorda SnF . Suyuqligi: poliakril kislotaning 40-50% li suv eritmasi. Ijobiy xususiyatlari: pulpa uchun past toksiklik;adgeziv xususiyatlarning yaxshi bo'lishi. Salbiy xususiyatlari: og'iz suyuqligiga chidamli emas;mustahkamligi past;estetik xususiyatlarning qoniqarsizligi. Qo'llash uchun ko'rsatmalar: 1.Ajratuvchi taglik sifatida, 2.Qistirmalar,qoplamalar,ko'priksimon



protezlar, ortodontik tuzilmalarni mahkamlashda. Shishai Onomer sementlarning kukuni tarkibi: (alyumosilikat shisha, ftoridlar). Suyuqlik tarkibi: poliakril kislotaning suvli eritmasi. Bular doimiy plomba sifatida tiklovchi estetik, mustahkam bo'ladi, tez qotuvchilari taglik uchun, fissure germetiklar va ildiz kanallarini to'ldirish uchun ishlatiladi.

Metall plomba (Amalgama). Kumushli amalgama. Ijobiy xususiyatlari: qattiqligi va mustahkamligi yuqori; og'iz suyuqligiga turg'un; tish qattiq to'qimasining rangini o'zgartirmaydi. Salbiy xususiyatlari: tish qattiq to'qimasiga adgeziyasi kamligi; plombani yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi tufayli plombani zararlaydi; hajmini o'zgartirishi; estetikaga mos emasligi. Misli amalgama.

Qo'llashdan avval amalgamali qorishmaga simob qo'shiladi. Ijobiy xususiyatlari: kovak qirg'oqlariga yaxshi yopishadi, kam kirishadi, bakteriosid ta'siri. Salbiy xususiyatlari: Og'iz bo'shlig'ida korroziyaga uchrashi; tish qattiq to'qimalarining qora rangga bo'yalishi.

Kompozitlar. Tagliklar 2 ga bo'linadi: davolovchi va ajratuvchi tagliklar. Davolovchi tagliklar-davolovchi ta'sir ko'rsatadigan karies kovak tubiga qo'yiluvchi taglik. Ajratuvchi tagliklar-tish pulpasini doimiy plombaning nojo'ya ta'siridan himoyalovchi taglik.

Ildiz kanallari uchun plomba ashyolari 2 guruhga: plastic va qattiqga bo'linadi. Plastiklar qotadigan va qotmaydigan bo'ladi. Qattiqqlar metall va metallmaslarga bo'linadi. Ildiz kanallari uchun plastic qotmaydigan ashyolar (kukun+suyuqlik) shaklida bo'ladi. Qotadiganlarga esa (sementlar) kiradi. Fillerlar-qattiq to'ldiruvchilar, Sillerlar-suyuq to'ldiruvchi bo'lib, ildiz kanal va filler devori orasidagi bo'shliqni to'ldiradi.

Xulosa

Plomba ashyolari stomatologiyada keng qo'llaniladigan asosiy davolash vositalaridan biridir. Ularning to'g'ri tanlanishi tish to'qimalarini tiklashda estetik ko'rinish, funksional chidamlilik va uzoq muddatli natijani ta'minlaydi. Har bir plomba materiali o'zining tarkibi, fizik-kimyoviy xususiyatlari va klinik qo'llash ko'rsatmalariga ega. Shu sababli stomatolog shifokor bemorning yoshini, tish



holatini, og'iz gigiyenasini hamda iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda eng maqbul materialni tanlashi zarur. Plomba ashyolarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash stomatologik davolash sifatini oshirishning omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Preklinik restavratsion stomtologiya darslik UO'K 616.314-085(075)
2. Rahmonov H. "Tish texnikasi materialshunosligi", Toshkent 2010 yil.
3. "Stomatologik materiallar (principilar va qo'llanishi)" _Zohaib Hurshid. tarjim)